


O'ZBEKISTON DAVLAT
XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI
NASHRI

RAQS BU-GO'ZALLIK, SO'ZSIZ MULOQOT...

MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY-AMALIY,
AXBOROT GAZETASI

2024-YIL
NOYABR



Raqs LAMI



Gazeta
2020-yildan
chiqa
boshlagan.

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

TOSHKENTDA QATAR MADANIYATI, HUNARMANDCHILIGI VA MILLIY TAOMLARI HAFTALIGI BO'LIB O'TDI

Poytaxtimizdagi "Tashkent City Park" majmuasida "Qatar madaniyati, hunarmandchiligi va milliy taomlari haftaligi" boshlandi. Haftalik doirasida Qatar madaniyatini aks ettiruvchi konsert dasturlari va ko'rgazmalar namoyish etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bilan Qatar Amirligi o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda o'tkazib kelinayotgan xalqaro festivallarda Qatar vakillari faol ishtirok etmoqda. Xususan, 2018-2024 yildagi Xalqaro maqom san'ati anjumani, 2019 yilda Xalqaro baxshi san'ati festivali, 2024 yilda o'tkazilgan "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalida Qatar vakillari ishtirok etgan edi. Shuningdek, Qatar Amirining O'zbekistonga tashrifi doirasida 2023 yilning 5-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qatar Davlati Hukumati o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida" memorandum imzolangan edi.

2024 yilning 20-26 fevral kunlari esa Qatar Doha shahrida "O'zbekiston madaniyati, turizmi va hunarmandchiligi" kunlari katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi. Tadbirlar doirasida O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov va Qatar madaniyat vaziri Shayx Abdulrahmon bin



Hamad Al-Tani o'rtasida uchrashuv tashkil etildi.

Qatar madaniyati, hunarmandchiligi va milliy taomlari haftaligidan ko'zlangan

asosiy maqsad ushbu davlat madaniyatining boy merosini, uning mumtoz va xalq amaliy san'ati, ijrochilik an'analari, urf-odat va marosimlarini namoyish qilish hamda

o'zaro do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan iborat.

Haftalikning ochilish marosimida Qatar Doha shahrida rang-barang madaniy landshafti, jumladan, san'ati, nomoddiy madaniy merosi namoyishi, milliy musiqa asboblari, miniatyura va badiiy, dekorativ hamda amaliy san'ati yo'nalishi, shuningdek, gastronomik ko'rgazmalar tashkil etildi.

Tadbir doirasidagi maydon tomoshalari, hunarmandchilik va gastronomik ko'rgazma tomoshasidan so'ng, maydonda tashkil etilgan sahnada Qatar san'at ustalari ishtirokida konsert dasturi namoyish etiladi.

Haftalik davomida O'zbekistonga tashrif buyurgan Qatar madaniyat vaziri Shayx Abdulrahmon bin Hamad Al-Tani va O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov o'rtasida hamkorlik uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda hamkorlikning kelgusidagi yangi istiqbollari belgilab olindi.

Mohichehra Ergasheva,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi

QOZOG'ISTON MILLIY XOREOGRAFIYA AKADEMIYASIDA XALQARO FESTIVAL



2024-yilning 7-9-noyabr kunlari Qozog'iston milliy xoreografiya akademiyasining "Ostona balet" teatri sahnasida "Temps Lie" III Xalqaro professional xoreografiya ta'lim muassasalari festivali bo'lib o'tdi.

Mazkur muhim madaniy tadbir, xoreografiya san'atini xalqaro maydonda

rivojlantirish, targ'ib qilish, turli mamlakatlar xoreografiya maktablari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan festival, taniqli balet raqqosalari va xoreograflarining tajriba almashishi hamda ijodiy yutuqlari maydoniga aylandi.

Hamkorlik memorandumini doirasida

Qozog'iston milliy xoreografiya akademiyasi rektori Bibigul Nurgalieva Nusiipjanova taklifiga binoan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Toxtasimov Shuhrat Max-mutovich festivalda faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi.

Festivalning tantanali ochilish marosimi martabali mehmonlar ishtirokidagi matbuot anjumani bilan boshlandi va festivalning ikkinchi kuni Akademiyada "Zamonaviy ta'lim tizimida xoreografiya maktabini rivojlantirish istiqbollari" mavzusida davra suhbat bo'lib, unda O'zDXA rektori Sh.M.To'xtasimov "O'zbekistonda xoreografik ta'lim: an'analar va innovatsiyalar" mavzusida ma'ruza qildi.

"Temps Lie" festivali nafaqat raqs festivali, balki tajriba almashish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, yangi ijodiy g'oyalarni ilhomlantirishga zamin yaratdi va Ikki nufuzli xoreografiya maktablari: Boris Eyfman va Pekin raqs akademiyalari talabalarining "Ostona balet" sahnasidagi gala-konserti bilan yakunlandi.

www.uzdxa.uz

USHBU SONDA

ILMIY IZLANISHLAR
YO'LIDA YANGI QADAM

BOLALIGIM SENI
SOG'INDIM...

O'ZBEKISTON
BAYROGI
HILPIRAGAN ENG YUQORI
NUQTANI BILASIZMI?

ILMIY IZLANISHLAR YO'LIDA YANGI QADAM



Qozog'istonning Olmaota shahridagi Ayollar milliy pedagogika universiteti "Xoreografiya va Art menejment" kafedrasidan o'tkazilgan "Ko'p madaniyatli jamiyatda san'at: an'analar va innovatsiyalar" ("Искусство в поликультурном обществе: традиции и инновации") IV xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha inspektori, "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi Dosjanova Dilafroz Qahramonovna ishtirok etdi. Mazkur safar haqida yosh tadqiqodchimiz bilan suhbatlashishga qaror qildik.

Dilafroz opa, siz aynan Olmaotaning Ayollar milliy pedagogika

universiteti tomonidan tashkil etilgan xalqaro anjumanda 3 yildan beri faol qatnashib kelmoqdasiz. Avvalo, siz bu anjuman haqida qanday bilgansiz?

— Bilasizmi birinchi marta bu anjumaning axborot xati kelganida, oliy ta'lim tizimiga endi kirib kelayotgan yosh o'qituvchi bo'lishimga qaramay rek-torimiz Shuhrat Maxmudovich barcha yosh o'qituvchilarni yig'ib, o'zbek xoreografiyasi haqida kim yaxshi maqola yozsa uni birgalashib ko'rib chiqib, ma'qul kelganini tanlab Olmaotaga yuboramiz. U yerdagi tashkilotchilar qabul qilsa maqolangiz nashr ettiriladi. Yoshlar harakat qilib ko'ringlar degan edi. Rektoremizning yosh o'qituvchilarga bildirgan ishonchi bor bilimimni jamlab, bilmaganimni o'zlashtirib, mukammal bir maqola tayyorladim. Ishonasizmi, maqolani 2

oy davomida yozganman. Bu 2021-yilda bo'lib o'tgan voqealar edi. Shundan so'ng maqolam nafaqat nashr ettirildi, balki ma'ruza bilan konferensiyada onlayn qatnashishimni aytishdi. Mening maqolam "Становление хореографического образования в Узбекистане" (Xoreografiya ta'limining O'zbekistonda tashkil topishi) deb nomlangan edi. O'shanda onlayn tarzda qatnashgan bo'lsam ham rosa hayajonlangan edim. Hozir o'sha hayajonli damlar esimga tushib ketdi. Sohaning yetakchi olimlari orasida ma'ruza qilish va ularning savollariga javob berish juda qo'rqinchli va bir tomondan juda sharafli edi-da.

Keyingi chiqishlaringiz-chi? Ularga qatnashish uchun ancha tajriba yig'gan bo'lsangiz kerak?

— Tajriba yig'dim, ammo ko'p emas. Sababi? Hali o'rganadiganlarim ko'p. Chunki keyingi anjuman bir yildan keyin bo'ldi. Bilasizmi, o'zbek raqs san'atiga Qozog'istonda qiziqish yuqori ekan. Ayniqsa, Xorazm "Lazgi"si va "Andijon polkasi"ni u yerda bolalar va kattalar maza qilib ijro qilishar ekan. 2023-yilda ularning taklifiga ko'ra uchta raqs maktabimizning ijro uslublari, liboslari haqida maqola yozdim. Quvonarlisi, endi bizni Olmaota shahriga tashrif buyurib, nafaqat xalqaro miqyosdagi anjumanida ishtirok etishimiz balki o'zbek raqs maktablari bo'yicha 3 kunlik mahorat darslarini o'tkazib berishimizni so'rashdi. Biz "Xoreografiya jamoalari rahbar" kafedrasida katta o'qituvchisi, san'atshunoslik fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD) Shirin Jalilova bilan Olmaotaga bordik va o'z bilimlarimizni ulashishga harakat qildik.

Bu yil esa Olmaotaga o'zingiz tashrif buyurdingiz? Mahorat darslari qay tarzda o'tkazildi?

— Ha shunday. Bu yil men IV xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida "Bolalar raqs jamoalarida xoreografiya darslarini o'tkazish metodologiyasining xususiyatlari" ("Особенности методики проведения занятия по хореографии в детских танцевальных коллективах") deb nomlangan maqolam bilan ishtirok etdim. Keyingi 5 kun ichida men tinglovchilarga o'zbek xoreografiyasi rivojining nazariy qismi, xususan, o'zbek raqsining 3 ta Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablari, ularning tavsifi, bir biridan farqi, ijro uslubi va liboslari haqida ma'ruza qildim. Amaliy mahorat darsini esa onlayn tarzida "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrasida o'qituvchisi, mahoratli pedegog Susanna Useinova mukammal namoyish etib o'tkazib berdi. Bilasizmi, mahorat darslari yakunida talabalar va hattoki universitet professor-o'qituvchilari bizning akademiyamizga akademik mobillik bo'yicha tajriba almashishga kelmoqchi ekanliklari istagini bildirdilar.

Dilafroz opa, maroqli suhbatningiz uchun katta rahmat!

— Sizga ham tashakkur!

"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Yakubjanova Muqaddas suhbatlashdi

MIRZO ULUG'BEK BUYUK OLIM



O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida O'zbekiston Res-publikasi Prezidentining "Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludi-ning 630-yilligini keng nishonlash to'g'risida" 2024-yil 12-sentabrdagi qarori hamda O'zbekiston Res-publikasi Bosh Vazirining Mirzo Ulug'bek tavalludining 630-yilligiga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita majlisining bayonida belgilangan "Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishga ba-

g'ishlangan eng yaxshi ilmiy maqolalar" tanlovinining birinchi bosqichi o'tkazildi.

Tanlovga akademiya talabalaridan kelib tushgan 20 dan ortiq ilmiy maqolalar Ekspertlar guruhi tomonidan tahlil etildi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Mirsoliyev Jamshidbek 1-o'rin, "Xoreografiya jamolalari rahbari" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Rasulova Ruxshona 2-o'rin va "Xoreog-rafiya jamolalari rahbari" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi No'monova Dilyora 3-o'rin g'olibi deb topilib, tanlovning keyingi bosqichiga tavsifa etildi.

FOLKLOR MILLIY LIBOSLARI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

"Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir" degan edi muhtaram yurtboshimiz o'z nutqlarida. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutloq yiroq bo'lgan kishi shu an'analar ichida ulg'aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi. Har bir sohaning o'z tarixi bo'lganidan, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi.

Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo'lsa bularning bari o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan. Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondashuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'lishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga

xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik, eng avvalo, har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma'naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida, maktabgacha ta'limdan to oliy o'quv yurtlarida til o'qitish va o'rganishda folklorga ilmiy-nazariy yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur deb o'ylayman. Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Og'zakilik, variantlilik, jamoaviylik folklorning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog'liq ekanligini urg'ulaydi, ya'ni folklor asarlariga turg'unlik xos emas, u har galgi ijroda o'zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor bu shunchaki so'z san'ati namunasigina emas, balki, xalqning til zahirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y basti bilan

o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o'zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir. Bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbi-yalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar birinchi navbatda so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namu-nalariga suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi.

Folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari me'morchilik, naqqoshlik, ganch-korlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor" deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olimlar esa, xalq og'zaki ijodiga ta'luqli bo'lgan barcha janrlarni folklor asari deb hisoblaydi.

O'zbek folklori milliy libosi jahonda o'z o'rniga egadir. Masalan dunyoning

turli joylaridan kelgan mehmonlar O'zbekistonda folklor milliy liboslari o'z o'rniga doimiy ravishda ega bo'lib kelganligi barchamizga sir emas. O'zbek folklor milliy liboslari o'zgacha jozibadorligi, hushbichimligi va naqshinkorligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mus-taqillikdan so'ng milliy liboslarimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Hozirda o'zbek qo'li gul chevarlari tomonida yaratilgan milliy liboslar O'zbekistonning turli go'shalari namoyish etilib qolmasdan balki, turli davlatlarda turlicha namoyish etib kelinmoqda. O'zbekistonga mehmon bo'lib kelgan har bir sayyoh vatanimizning tarixiy obidalarini, memorchilik san'atini, milliy urf-odatlarimizga katta qiziqish bilan e'tibor qaratib kelmoqda. Mustaqillik va navro'z shodiyonalari, hosil bayramini va o'zbekona to'ylarni guvohi bo'ladi.

Zebiniso Tursunova,
"Xoreografiya jamoalari rahbari"
sirtqi ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

IKKINCHI SHARQ UYG'ONISH DAVRI: MIRZO ULUG'BEKNING ILMIY VA MADANIY MEROSI

Hozirgi vaqtda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz — allomalarimizning ilmiy-ma'naviy merosini ilmiy asosda izchil o'rganish har vaqtdagidan ham dolzarblik kasb

etmoqda. Chunki bu allomalarning ibratlarga to'la hayot yo'llariyu qoldirgan benazir asarlari nafaqat o'z yurti va zamonasi, balki butun insoniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir

etuvchi intellektual meros hisoblanishishubhasiz.

Shuni ta'kidlash joizki, Yurtboshimiz tomonidan bugungi kunning dolzarb masalaridan biri sifatida buyuk ajdodlarimiz merosidan butun jahon afkor ommasini xabardor qilish, ularning boy merosidan zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida unumli foydalanish ziyolilirimizga birlamchi vazifa etib belgilandi. Mirzo Ulug'bek Sohibqiron Amir Temurning nevarasi bo'lib, 1394 yilda Sultoniya shahrida tug'ilgan. U o'zining ilm-fanga bo'lgan qiziqishi va intilishi bilan mashhur. Uning davrida Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Ulug'bekning ilmiy va madaniy tashabbuslari Markaziy Osiyoda ilmu ma'rifat rivojiga katta hissa qo'shdi.

Madaniy meros

Ulug'bekning madaniy merosi ham juda boy. Uning tashabbusi bilan ko'plab ta'lim muassasalari ochildi, bu esa bilimlarning ko'payishiga yordam berdi. Uning madrasalarida nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar ham o'qitilar edi. Bu esa jamiyatning barcha qatlamlarini bilim bilan ta'minlashga imkon berdi. Uning madaniy tashabbuslari nafaqat ta'lim sohasida, balki san'at va madaniyat sohasida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning rahbarligida qurilgan madrasalar va boshqa ta'lim muassasalari bugungi kunda ham o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Uning

tashabbusi bilan qurilgan insho-otlardan biri bo'lgan Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi bugungi kunda ham qadrlanib, turistlar tomonidan ko'plab ziyorat qilinadi.

Ilm – fan va madaniyat, san'at homiysi sifatida

Mirzo Ulug'bek ulkan bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullandi, butun dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Uning astronomik tadqiqotlari zamonaviy astronomiyaning asosini tashkil etgan. Uning madaniy tashabbuslari esa ta'lim va madaniyat sohasidagi rivojga katta hissa qo'shgan. Ulug'bekning ilmiy va madaniy faoliyati hozirgi kunda ham o'rganilmoqda va uning merosi hanuzgacha ahamiyatlidir. Uning Britaniya muzeyida saqlanayotgan yashil nefritdan yasalgan piyolasida "Haq taoloning karami-marhamatga cheksizdir" degan so'zlar yozilgan.

Mirzo Ulug'bekning ilmiy va madaniy merosi hozirgi kungacha yashab kelmoqda. Uning 630 yilligi munosabati bilan uning asarlarini yana bir bor eslab, kelajak avlodlarga bilim va ilm-fanga bo'lgan muhabbatni uyg'otishimiz kerak. Ulug'bekning ishlari va merosi bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay, bizga ulkan ilhom bag'ishlaydi. Uning ilmiy va madaniy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun katta ahamiyatga ega. Uning ilmiy tadqiqotlari va madaniy tashabbuslari kelajak avlodlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Jamshid Mirsoliyev,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

BOLALIGIM SENI SOG'INDIM...

Bilamizki, har bir insonning o'ziga xos va esda qolarli bolaligi bor. Men ham bugun, biroz bolalik kezarimni esga olgim keldi.

Oddiy bir qishloqning, oddiy oilasida dunyoga kelgan, oddiy bir bolaman.

Oilada uch nafar farzand bo'lsak, eng kichigi ham, kenjasi ham, eng erkasi ham men edim. Otamning yelkasida katta bo'lganman desam ham bo'laveradi. Chamasi to'rt yoki besh yoshlik paytlarim. G'am-tashvishsiz, beg'ubor, beozor bir davr edi. Onamga esa juda qattiq bog'langan edim.

Onam meni uxlatgan va yumush bilan chiqib ketgan. Oradan bir muncha vaqt o'tib uyg'ondim va asta sekin hovliga chiqib onamni qidira ketdim. U yoqqa o'taman onam yo'q, bu yoqqa o'taman onam yo'q, qayerdaligini esa bilmayman. Onamni topa olmaganiman keyin, shunda ko'zimga yosh keldi va baqirib, onajonim qayerdasz, endi sizziz nima qilaman deb yig'lay boshladim. Eng qizig'i, birozdan so'ng onam kelib meni urushib ketisa bo'ladi. Yosh bolaman, onamni yo'qotib qo'ydim deb qo'rqib ketganman. Onam kelgan bo'lishiga qaramay, eng yaqinini yo'qotish qanchalik og'irligini his qilganman.

Qishloqda bilasiz, shahar kabi bolalar maydonchasi yo'q. Bolalar qayerda o'ynasa, o'sha joy bolalar maydonchasi bo'lib ketaveradi. Asosan bu — mahallaning ko'chasi. Erta tong sahardayoq ko'chaga oshiqib, chiqib ketadigan o'yinqaroq bolalardan bittasi o'zim edim. Ertalab chiqib ketib, shom vaqtida qaytilar edi. Qishloqdagi eng

zo'r o'yin bu albatta futbol. Chunki, futbol o'ynash uchun alohida maydon bo'lishi shart emas, ko'chaga chiqib ikki tarafga ikkitadan tosh qo'yib darvoza qilinadi, shuni o'zi yetarli bo'ladi. Hammada bo'lgani kabi, bizda ham to'p ya'ni koptok kimniki bo'lsa shuni aytgani bo'lardi.

Ertalab boshlangan futbol kechga qadar davom etardi. Agar koptok egasi arazlab ketib qolmasa...

Bolalik chog'imizda bilsangiz, qishda juda ham chiroyli qorlar ko'p yog'ar edi. Kunlardan bir kun, qaltingina qor yog'di. Erta tongdan chiqiboq, bolalar bilan qor bo'ron o'ynaganlarimiz, qorbobo yasaganlarimiz hech ham yodimdan chiqmaydi.

Bolalik o'zi nimasi bilan qiziq deyishsa, shomga qadar o'ynab, yayrab yurasan-da, uyga kelgach esa onang seni urushib kutib olishi bilan degan bo'lar edim. Albatta bu hazil lekin har bir insonning boshidan o'tgan eng yoqimli damlarishu.

Aslida esa, onalarimizga qancha yaxshilik qilsak ham, hattoki jonimizni fido qilsak ham, onalarimizning bizga bergan mehr-muruvvatlarini qaytara olmasak kerak. Mana hozir ulg'ayib, oliygohda tahsil olmoqdaman. Oz bo'lsa-da mas'uliyatni his qilyapman. Bugungi darajaga yetishimga eng katta sababchilardan biri ota-onam va ota-onamning bergan tarbiyasi deb bilaman. Ushbu yozganlarim orqali sizga ham oz bo'lsa-da, bolaligingizni eslatgan bo'lsam, juda ham xursandman.

Sherzod Qodirov,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Agar mendan nimani ko'proq sog'inasan, desalar, o'ylab ham o'tirmay bolaligimni derdim. Xayollarim meni juda olisga, o'tmishga yetaklaydi. Xayol qilaman. Ana men. Beozor, quvnoq, hayot gulshanida qushcha misol osmonlarda uchib yurgan bola. Kel, men seni bag'rimga bosay, seni juda sog'indim. Mendan xafa bo'lma. Katta bo'lish yomon ekan. Bilaman, sen beozor bolaligimsan. Katta bo'ldim. Bu hayotning katta-katta qozonlarida qaynagan, zavqlanishni, kulishni unutgan katta yigitman. Bolaligim sen mazza edi. Istagancha sho'xliklar, erkaliklar qilar eding. Hamma nar-saning eng oldisi, asl o'yinchoqlar, kiyimlar seniki edi. Atrof to'la do'stlaring, yaqinlaring parvona edi. O'sha paytlar bir umr shunday bo'ladi, deb, o'ylardim. Lekin hayotning katta qozonida biqir-biqir qaynab sarang sarangga, puching puchingga ajralar ekan. Bir dam mazali bo'lib tuyilgan ko'z oldingdagi narsalar, bir zum o'tmay bemazaga aylanar ekan. Bolaligim, esingdami, otam bilan onam tandirda erta azonda issiqqina qilib yopgan nonlarini sovuq suvga solib mazza qilib yeganlarimiz. Eh... Hozir shu narsani yeya olmayman, undagi mazani topa olmayman. Eh, bolaligim, senga hasad qilaman. Nega, bilasanmi, otamning erkasi edim, ishdan kelishi bilan tizzasiga

chiqib, o'tirib olardim. Mashinalarini oldi tomoniga o'tirib, yalpayib ketar, oynadan boshimni ko'tarib, hammaga o'zimni ko'z-ko'z qilib ketardim. Bozorga borsam, eng oldi narsalarni oldirdim. Eh, mendan baxtli odam bo'lmas edi. Bolaligim, esingdami, dasturxon atrofida singilim, ukam bilan onam pishirgan ovqatlarni talashib, tortishib yeganlarimiz. O'sha maza haliyam og'zimda qolgan. O'sha ta'mni hech bir manaman degan restoran, kafe taomlaridan topa olmadim. Bolaligim, esingdami, hovlida futbol o'ynab, yugurib charcha-maganlarimiz. Kun issig'ida katta tog'araga suv to'ldirib cho'mil-ganlarimiz. Eh... O'sha hovlini borib ko'rdim. Kichikligimizda katta bo'lib ko'ringan hovlimiz, endi ko'zimga kichkina bo'lib ko'rinib ketdi. O'sha hovlini bir burchagida seni ko'rdim. Ko'rdimu, rosa quvonib ketdim. Seni rosa sog'ingan ekanman. Sen bilan rosa dardlashdim. Bolaligim endi seni sira yolg'iz qo'yamayman. Seni mahkam quchib qolaman. Endi men bilan doimo birgasan...

Mahmudjon Rahimjonov,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi



O'ZBEKISTON BAYROG'I HILPIRAGAN ENG YUQORI NUQTANI BILASIZMI?



O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i nafaqat yurtimizda yashovchi, balki boshqa mamlakatlarda yashovchi o'zbeklar uchun ham qadrlidir. Qirg'izistonlik uchuvchi-kosmonavt **Solijon Sharipov** O'zbekiston bayrog'ini ilk bor 1998 yilda "Indevor" kosmik kemasi bortida fazoga olib chiqqan. Bu esa O'zbekiston bayrog'i hilpiragan eng baland nuqta bo'lib qoldi.



«Sirli O'zbekiston» jamoasi vakillari **Sharof Egamberdiyev** va **Shuhrat Odilov** Osiyo qit'asidagi eng baland vulqon cho'qqisi – Eron shimolida joylashgan Demavend cho'qqisini zabt etib, dengiz sathidan 5 ming 610 metr balandlikda O'zbekiston bayrog'ini ko'targan.



Bulung'ur tumanidan bo'lgan Sanjar Afrikaning Kilimanjaro tog' cho'qqisiga O'zbekiston bayrog'ini olib chiqqan. Kilimanjaro — Sharqiy Afrikadagi vulqon tog'i bo'lib, Tanzaniya hududida joylashgan. Balandligi 5 ming 895 metrni tashkil etadi va Afrika materigidagi eng baland cho'qqi sanaladi.



Nepal hududidagi Everest (Jomolungma) cho'qqisi sayyoramizning eng baland nuqtasi bo'lib, uning balandligi dengiz sathidan boshlab hisoblaganda 8 ming 848 metrni tashkil etadi. Mazkur cho'qqini ilk bor 1953 yil 29 mayda ingliz alpinistlari Tensing Norvegi va Edmund Xillari zabt etgan.

Mustaqil O'zbekiston vakillaridan birinchi bo'lib bu yuksak cho'qqini 1998 yil 22 may kuni soat 16:45 da alpinistimiz **Rustam Rajabov** zabt etdi va u yerga O'zbekiston bayrog'ini qadagan.



Diyor Haydarov O'zbekiston davlat bayrog'ini Markaziy Osiyodagi eng baland cho'qqilardan biri bo'lmish Abu Ali ibn Sino cho'qqisida 7 ming 134 m balandlikda ko'tardi. Ilhom Ikromov esa balandligi 6 ming 100 metr bo'lgan "Razdelnaya" cho'qqisida hilpiratdi.



Qashqadaryo viloyatida joylashgan O'zbekistondagi eng baland cho'qqiga yurtimiz bayrog'i o'rnatilgan. **Hazrati Sulton cho'qqisi** 4 ming 643 metrni (ayrim manbalarda 4 ming 30 m) tashkil qiladi.




O'zbekistonlik alpinist **Sergey Denisenko** 2021 yil 1 iyun kuni Everest cho'qqisiga chiqqanda O'zbekiston bayrog'i va Prezident Shavkat Mirziyoyev suratini ko'tardi. Alpinist bayroq va Prezident suratini Nepal vaqti bilan 17:30 (Toshkent vaqti bilan 16:45)da 8 ming 848 metr balandlikka yetganda ko'targan.

Keyinroq Shavkat Mirziyoyev Everestni zabt etgan alpinistni "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan mukofotlagan.



"Sirli O'zbekiston" turistik jamiyati ta'asischisi, bioximik, biologiya fanlari doktori **Sharof Egamberdiyev** 2019 yil 18 iyulda Yevropadagi eng baland – Elbrus cho'qqisiga O'zbekiston bayrog'ini o'rnatgan.



2021 yil 21 avgust kuni yurtimizning **yosh tadqiqotchilari** tomonidan aerostat bilan stratosferaga uchirilgan O'zbekiston Respublikasi bayrog'i Yerdan 46 ming metr balandlikka ko'tarilgan.

N.Abduraimova, O'ZA

TAHRIR HAY'ATI:

Nozim QOSIMOV
Jahongir G'ANIYEV
Rushana SULTONOVA
Hulkar HAMROYEVA
Matluba MURODOVA
Po'lat TASHKENBAYEV
Dildora QOSIMOVA
Shahzoda XUDOYNAZAROVA
Gulalal USMONOVA

BOSH MUHARRIR:

Shuhrat TOXTASINOV

BIZNING MANZIL:

100031, Toshkent shahri,
Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,
103-uy.

NASHR UCHUN MAS'UL

To'maris A'ZAM

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:
18:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 200
Bahosi kelishgan narxda.

SAHIFALOVCHI:
Muhammadxon YUSUPOV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati,
O'rta Chirchik tumani,
"Mash'al" mahallasi,
Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma: 935

Hajmi 1 bosma taboq.